



**AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH
ORQALI O'QUVCHILARDA SHAXSIY AXBOROT
XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH**

Karamatova Dilfuza Sadinovna¹

¹Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
o'qituvchisi, Toshkent, Uzbekistan.

Erkinova Zamira Hayotjon qizi²

¹TDPU BT-2-bosqich talabasi.

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-yanvar 2023 yil

Ma'qullandi: 20-yanvar 2023 yil

Nashr qilindi: 23-yanvar 2023 yil

KEY WORDS

*Axborot, infosek, axborot
xavfsizligi, texnologiyalar,
kommunikatsiya, Internet,
kompyuter, iste'mol, madaniyat,
ijtimoiy hayot, soha, tizim.*

ABSTRACT

Maqolada o'quvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish muammosi yoritilgan. Shuningdek, rivojlanayotgan texnologiya asrida axborot iste'molini yoshlarning tarbiyasiga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Rivojlanayotgan texnologiyalar asrida hayotimizni "aqilli gadjet"larsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Inson yumushini yengillatish maqsadida yaratilgan bu texnologiyalar hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurgan.

Bugungi kunda axborot iste'moli jarayoni ham o'ziga xos madaniyatni kasb etmoqda. Axborot iste'moli jarayoni globallashuv jarayonining xususiyatlaridan biri bo'lib, internet tarmog'i rivojlanib borayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyatga egadir. Shu boisdan, hozirgi davr egasiga axborot malumotlari o'zi xohlaganidan ko'proq darajada yetkazilib berilmoqda, natijada u qabul qiladigan axborotlarning nojo'ya tasiri, ularga ko'r-ko'rona ishonish soni ortib bormoqda. Eng muhimi esa, axborot iste'moli madaniyatiga ega inson, jamiyat, xalq va millat uchun g'arazli manfaatlar doirasidagi geoxabarlar ta'siriga tushib qolmaydi.

Albatta, axborot iste'moli madaniyatining shakllanishi murakkab jarayon bo'lib, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida tizimli ravishda sa'y-harakatlarni olib borishni taqozo etadi. Axborot iste'mol madaniyati ham madaniyatning boshqa shakllari kabi bir qator funksiyalarni bajaradi.

Kommunikativ, regulativ (tartibga solish), informatsion, aksiologik (baholash) kabi funksiyalar shular jumlasidandir. Masalan, internet orqali juda ko'p ijobiy ma'lumotlar bilan birga, sharq madaniyatiga, xususan, kishilarimiz xulqi odobiga salbiy ta'sir etuvchi axborotlar ham uzatilayotgani, tabiiyki, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz g'oyaviy tarbiyasiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Har qanday ma'lumotni tahlil qila olish uchun insonda axborot iste'moli madaniyati shakllanishi zarur. Axborotni qabul qiluvchi o'zi, atrofdagilar, yaqinlari, xalqi, yurti manfaatlarini himoya qilishi, shunga mos va xos ma'lumotlarni tanlashni bilishi, o'zlashtirishi va tarqatishi lozim. Bu, o'z navbatida, tarbiyaga bog'liq.

Bugungi kunda Internet — inson hayotining ilk bosqichidanoq uning ajralmas qismiga aylanib

qolgani bois, bolalarni uning xavfidan himoyalash masalasi bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi va mazkur muammo global miqyosda hal etilishi taqozo etiladi. Internet bolalar tarbiyasida o'ta muhim o'rin egallaydi. Chunki, bola tarbiyaga oid xulqatvor ko'nikmasi, hayot tamoyillari, fikrlash va olam manzarasini ko'proq aynan internet yordamida o'rganish imkoniyatiga ega. Ayrim ota-onalar farzandining kompyuter qarshisida bo'lgan vaqtida hech qanday xavotirga o'rin yo'q, deb o'ylaydi. Biroq virtual olamda ham ularni muayyan xavfxatarlar va tahdidlar kutib turgan bo'lishi mumkin.

Axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar tomonidan tahlikali sharoitlarda qay tarzda o'zini muhofaza qilish, xavfxatarlar va tahdidlardan himoyalalanish mumkinligini anglash uchun murakkab bo'lmagan qoida va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, internetda ishlash paytida ularni esda tutish va e'tibor qaratish so'raladi.

Bugun yoshlarga "Bu axborotni kim taqdim qilmoqda?", "Nima uchun taqdim qilmoqda?" va "Qanday maqsadda taqdim qilmoqda?" degan savollarni o'z-o'ziga berishi, unga asosli javob topishga harakat qilishni o'rgatish kerak bo'ladi. Ana shundagina turli g'oyalar ta'siriga tushib qolish ehtimoli kamayib, taklif etilayotgan ma'lumotlarga ko'r-ko'rona ergashishning oldi olinadi. "Axborot tashnalligi"ga barham beriladi.

Axborot madaniyati – axborotlar bilan maqsadga intilib ishlashni bilish va axborotlarni olish uchun, qayta ishlash, kompyuterli informatsion texnologiyani va zamonaviy texnik vositalarni va usullarni qo'llashni anglatadi. Faqat yuqori darajadagi axborot madaniyatiga ega bo'lgan kishilargina tabiiy, ijtimoiy va ekologik resurslarni aniq xisobini qila oladilar. Bu esa barcha tarmoq yo'nalishlaridagi boshqaruv masalalarini tezlik bilan xal etish imkonini beradi va respublikani ravnaq topishida muhim o'rin egallaydi.

Darslarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lim olish uchun ijobiy motivatsiyani kuchaytiradi, ta'lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari didaktik material mazmuni va shakli bo'yicha turli-tumandir: elektron darsliklar, videorolik, musiqa, ma'lum mavzudagi taqdimotlar, rivojlantirish xususiyatiga ega turli testlar, topshiriqlar va boshqalar. Darslarda axborot texnologiyalarini qo'llash bilish faoliyatini faollashtiruvchi asosiy prinsiplar-ishonish va teskari aloqa, tadqiqotchilikni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu prinsiplarning amalga oshirilishini axborot texnologiyalari qo'llanilgan barcha darslarda kuzatish mumkin.

"Axborot xavfsizligi" tushunchasi O'zbekistonga kirib kelganiga ko'p bo'ldi. Jurnalistika fakultetlarida 2000-yillarning o'rtalaridan buyon axborot xavfsizligi maxsus fan sifatida o'rgatib kelinadi. Ayni damda, hali ham mamlakatda ko'pchilik bu tushunchaning asl ahamiyatini anglamaganday xayolimda. Universitetda bu fan darslarida juda umumiy mavzular o'tilar, axborot xavfsizligi bo'yicha umumiy tushunchalar berilar edi. Universitetdan tashqari hayotga kelsak, men ko'rgan-bilgan odamlarning aksariyati shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligiga yetarli e'tibor qaratmaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash mustaqil faoliyat imkoniyatlarini kengaytiradi, tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantiradi, turli ma'lumotlar tizimi, elektron kutubxona, boshqa axborot manbalaridan foydalanishga imkoniyat beradi, umumlashtirib aytganda ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llab o'tiladigan dars ishlab chiqilayotganda ta'lim oluvchilar sog'ligiga alohida e'tibor qaratish kerak.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Asrorova M.A., Salayeva M.S. Globallashuv sharoitida Internet tizimining insoniyat psixikasiga ta'siri / "XXI asr шахс тараққиёти: муаммо ва ечимлар" мавзусида 1-анъанавий талаба илмий жамияти ТИЖ илмий-амалий конференцияси, Тошкент амалий фанлар университети «Психология» кафедраси 2022 йил 20 декабрь. - Б. 147-151.
3. Salaeva M.S. Umumiy pedagogika. Darslik "Nodirabegim" nashriyoti. -T.: 598 bet.
4. Salaeva M.S., G'ulamova S.R. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / "Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2022 – B. 209-213.
5. Salaeva M.S. Professional darajaga erishish maqsadida pedagogning virtual mobilligini rivojlantirish / "Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. Elektron to'plam.. 2021-yil 5-may. - B.230-234.
6. Салаева М.С ва муаллифлар жамоаси. Педагогика. Энциклопедия. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2018. – 424 б.
7. Салаева М.С., Астанқулова Н.А. Олий таълим муассасаларида педагогик ва ахборот технологияларини жорий этиш имкониятлари // Maktab va hayot. № 1. 2010. – Б. 26-27.
8. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>
9. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / "Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: "Firdavs-Shoh" nashriyoti, 2022 – B. 276-281.
10. Pedagogika nazariyasi / Prof. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. -T., «O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati». 2010-yil.
11. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. -T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017.